



# HUDUDGAZTA'MINOT

AKSIYADORLIK JAMIYATI

**«HUDUDGAZ TOSHKENT»  
gaz ta'minoti filiali**

**TABIIY GAZNI ULGURJI  
ISTE'MOLCHILARGA  
ETKAZIB BERISH VA QABUL QILISH  
SHARTNOMASI**

№12-02/ 744-son

Iste'molchi nomi: Chirchiq shahar Ksh. ijtimoiyati

Iste'molchining xos raqami 120200435

Faoliyat turi ijtimoiy xohish qilinadigan

CHIRCHIQ 2022 yil

Tabiiy gazni ulgurji iste'molchilarga etkazib berish va qabul qilish

ShARTNOMASI

2022 yil 12-avgust

№12- 02/20 -son

Nurafshon shaxar  
(shartnoma tuzilgan joy)

Nizom asosida faoliyat yurituvchi "Chirochiq shahar  
(Iste'molchi nomi)(keyingi o'rinlarda "Iste'molchi" deb ataladi), rahbari  
Hokimiyati

bir tomondan hamda Nizom va 2022 yil 5 yanvarda berilgan 03-19-11/41-sonli  
hukmnomasi asosida faoliyat yurituvchi "Hududgaz Toshkent" gaz ta'minoti filiali (gaz  
ta'minoti tashkiloti nomi)(keyingi o'rinlarda "Etkazib beruvchi" deb ataladi), rahbari  
M.R.AliEv ikkinchi tomondan, quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani  
tuzdilar:

ISHARTNOMA PREDMETI

1.1. Etkazib beruvchi o'z zimmasiga gaz tarmoqlari orqali Iste'molchining kelishilgan  
buyurtmanomasi bo'yicha tabiiy gaz (keyingi o'rinlarda gaz deb ataladi) etkazib berish majburiyatini  
oladi, Iste'molchi esa o'z zimmasiga ushbu shartnomaning 1.4-bandida ko'rsatilgan hajmda gazni  
qabul qilish majburiyatini oladi hamda to'lovlarni belgilangan narx bo'yicha o'z muddatida amalga  
oshiradi.

1.2. Etkazib beruvchi gazni ushbu shartnomaga va gazlashish loyihasiga muvotiq, gazdan  
foydalanish uchun standartlashtirilgan va sertifikatga ega gaz qurilmalari, shuningdek,elektron gazni  
hisoblash priborlari (keyingi o'rinlarda hisoblash priborlari deb ataladi) mavjud bo'lganda Etkazib  
beradi.

1.3. Iste'molchi Etkazib beruvchiga tasdiqlangan me'yorlarga (Tabiiy gazdan foydalanish  
qoidalarining 6-bandiga) asosan ishlab chiqariladigan mahsulotga (yoki ko'rsatilayotgan xizmat)  
nisbatan kelgusi yilda gazga asoslangan ehtiyojni taqdim etadi.

Iste'molchi joriy yilning 15 iyul kuniga qadar kelgusi yilda iste'mol qilinishi taxmin  
qilinayotgan gaz hajmi bo'yicha buyurtma beradi.

1.4. Iste'molchi bilan kelishilgan buyurtma bo'yicha etkazib beriladigan  
gaz hajmi tekshiruv natijalarida belgilangan bosim va hajmda 2022 yilda 67000 kub.m narxi  
103660 ming so'mni tashkil qiladi, jumladan choraklar va oylar bo'yicha quyidagicha  
taqsimlanadi: Shartnomaning umumiy qiymati 44210000  
budjet mablag'lari hisobidan 40456680 (bu mablag'lar 2022 yil 12 oy davomida  
budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan 376531074 (bu mablag'lar 2022 yil 12 oy davomida  
(12 oy davomida 12 oy davomida))

I chorak	<u>330</u>	mingkub.m,	vanvar	<u>120</u>	fevral	<u>120</u>	mart	<u>90</u>
II chorak	—	mingkub.m,	aprel	—	may	—	iyun	—
III chorak	—	ming kub.m.	iyul	—	avgust	—	sentabr	—
IV chorak	<u>340</u>	mingkub.m,	oktabr	<u>100</u>	noyabr	<u>120</u>	dekabr	<u>120</u>

Etkazib beruvchi tomonidan xizmatlarini to'liq hajmda ko'rsatish uchun magistrал va gaz taqsimoti tarmoqlarining ishlashi izdan chiqqan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 24 dekabrda 277-son qarorida qayd etilgan strategik va ijtimoiy ahamiyatga ega Iste'molchilarga 20 yilda zarur bo'lgan tabiiy gazning minimal hajmi \_\_\_\_\_ ming kub metri, shu jumladan choraklar va oylar bo'yicha quyidagimi tashkil qiladi:

I chorak	_____	mingkub.m,	vanvar	_____	fevral	_____	mart	_____
II chorak	_____	mingkub.m,	aprel	_____	may	_____	iyun	_____
III chorak	_____	ming kub.m.	iyul	_____	avgust	_____	sentabr	_____
IV chorak	_____	mingkub.m,	oktabr	_____	noyabr	_____	dekabr	_____

1.5. Agar, Iste'molchi oylar bo'yicha bo'lingan buyurtmanomani taqdim etmasa, Etkazib beruvchi tomonidan chorak uchun ajratilgan tabiiy gaz hajmi oylar bo'yicha bir xil miqdorda taqsimlanadi.

1.6. Etkazib beruvchi Iste'molchi buyurtmalarini tabiiy gaz resurslarining va gazni taqsimlashning tasdiqlangan balansiga muvofiq ajratilgan hajmlar doirasida qayta ko'rib chiqishi mumkin. Iste'molchi tomonidan navbatdagi oy (chorak) uchun ko'rsatilgan tabiiy gaz hajmlari o'zgarishi bo'yicha 10 kun oldin gaz ta'minoti tashkilotiga xabar bergan taqdirda, bunday holat ortiqcha olingan gaz miqdori deb hisoblanmaydi.

## II. GAZNI ETKAZIB BERISH SHARTLARI

2.1. Gaz ushbu shartnomada qayd etilgan (1.4-band) muddatlarda va hajmlarda hamda GOST 5542-2014 (Sanoat va kommunal foydalanish uchun tabiiy yonuvchi gazlar) ga muvofiq tarzda tabiiy gazni Etkazib beriladi.

2.2. Iste'molchi Etkazib beruvchidan ushbu shartnomaning 1.4 va 1.5-bandlariga asosan joriy oy uchun gaz iste'molining sutkalik me'yori doirasida gaz qabul qilib oladi, shuningdek, oy oxirida tuzilgan gaz etkazib berish va qabul qilish dalolatnomasini imzolaydi.

2.3. Etkazib beruvchi Iste'molchiga 24 soat ichida gaz etkazib berish va qabul qilish tartibi va shartlari o'zgariganligi to'g'risida barcha usullar orqali Iste'molchini xabardor qilishi shart.

Etkazib beruvchining avariya-dispatcher xizmatlari telefon raqamlari:

Iste'molchi manzili va telefon raqami:

Ularov uxor. A. To'liyev ! 307163751

2.4. Etkazib beruvchi Iste'molchini gaz etkazib berish qisqartirishiga qadar kamida 24 soat avval bu haqida xabardor qilishi shart, magistrал gaz quvurlarida yuz bergan avariya holatlari bundan mustasno. Iste'molchi xabardor qilingandan kevin gaz etkazib berish darhol qisqartiriladi yoki to'xtatiladi.

2.5. Magistral va taqsimlovchi gaz quvurlarining texnologik ish rejimlan buzilganda, shuningdek, kuz-qish mavsumida ijtimoiy soha ob'ektlarini va aholi istemolchilarini bir maromda tabiiy gaz bilan ta'minlash maqsadida Etkazib beruvchi, Iste'molchini ogohlantirgan holda gaz etkazib berishni cheklash yoki to'xtatib qo'vish huquqiga ega, Iste'molchi esa zaxira yoqilg'i turidan foydalanishga o'tadi.

2.6. Iste'molchi etkazib beruvchi bilan gaz etkazib berish-qabul qilish doirasida tezkor ma'lumotlarni muntazam almashishni ta'minlash uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

2.7. Iste'molchi zaxira yoqilg'i turidan foydalanishni ko'zda tutishi va uni Etarli miqdorda (3 oydan kam bo'lmagan muddatga) shakllantirishi shart. Iste'molchi Etkazib beruvchining asoslangan talabi bilan tabiiy gazdan foydalanish qoidalariga muvofiq zaxira yoqilg'iga o'tishi va gazdan foydalanishni to'xtatish lozim. Gaz etkazib berishning to'xtatilishi tegishli dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

2.8. Iste'molchi o'ziga tegishli bo'lgan gaz tarmoqlari va ularda o'rnatilgan uskunalar, GTP (gaz taqsimlash punkti), gazdan foydalanish uskunalaridan soz holda foydalanish, ularga xizmat ko'rsatish hamda saqlash uchun javobgar hisoblanadi

2.9. Iste'molchining qo'shimcha gazdan foydalanish uskunalari o'rnatilishi, rekonstruksiya qilinishi yoki ta'mirlanishi oqibatida gaz sarflash hajmi o'zgarishiga olib kelgan hollarda Iste'molchi, Etkazib beruvchidan qo'shimcha gazdan foydalanish uskunalarini o'rnatish yoki rekonstruksiya qilishga texnik shartlarni olishi shart. Gaz tarmoqlariga ulanish Tabiiy gazdan foydalanish qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

2.10. Iste'molchi yoki Etkazib beruvchining to'lov rekvizitlari o'zgaragan holatlarda ular zudlik bilan bir-birini bu haqida xabardor qilishi shart.

2.11. Tabiiy gazni qazib olish, qayta ishlash, uzatish, taqsimlash va iste'mol qilish rejimining yagona uzluksiz texnologik jarayonini hisobga olib, tabiiy gazni Ishlab chiqaruvchi va Etkazib beruvchining talablarini bajarish, Iste'molchilar uchun majburiy hisoblanadi.

### **III. ETKAZIB BERILGAN GAZNI HISOBGA OLISHNI TASHKIL ETISH**

3.1. Gazni hisobga olmasdan etkazib berishga yo'l qo'yilmaydi

3.2. Etkazib berilgan gaz miqdori gaz tarmoqlari bo'linishi chegarasida o'rnatilgan hisoblash priborlari ko'rsatkichlari yoki o'lchash kompleksi bo'yicha aniqlanadi hamda har ikki tomon imzolaydigan gaz etkazib berish va qabul qilish dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Gaz tarmog'i bo'linishi chegarasi (Iste'molchi balansida bo'lgan gaz tarmog'ining boshlanishi hisoblanib) Etkazib beruvchi va Iste'molchi o'rtasidagi, tegishliligi bo'yicha aniqlanadigan gaz tarmog'i bo'linishi nuqtasi hisoblanadi va unda hisoblash priborlari o'rnatilishi shart.

3.3. Birlik miqdori standart sharoitda  $1 \text{ m}^3$  gaz olinadi: xarorat  $20^\circ \text{C}$ , bosim  $101,325 \text{ kPa}$  ( $760 \text{ mmHg}$ ) (GOST 2939-63 1.1-bandiga asosan). Gaz hajmi gazning fizik-kimyoviy parametrlari (standart sharoitda, azot va karbonat anhidrid) qiymatlari bo'yicha tuzatiladi.

Gaz miqdori "O'zstandart" agentligining me'voriy-xuquqiy hujjatlar talablariga muvofiq gaz miqdorini standart sharoitga avtomatik ravishda keltiradigan gazni hisoblash priborlari yordamida aniqlanadi.

3.4. Etkazib beruvchining yoki Iste'molchining balansida bo'lgan gaz o'lchash pribori va/yoki o'lchov kompleksi uning mulki hisoblanadi.



3.5. Iste'molchi tomonidan gaz o'ldash pribori va/yoki o'ldov kompleksi tanlovi tegishli qoidalar va me'yorlarga muvofiq amalga oshiriladi va Etkazib beruvchi bilan kelishiladi. Iste'molchi tomonidan gaz o'ldash pribori va/yoki o'ldov kompleksi gaz iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizim (TGINAT-ASKUG) lariga ulanishi lozim.

3.6. Gaz o'ldash priborlari va/yoki o'ldov kompleksini o'rnatish va ishlatish amaldagi qoidalar va me'yorlarga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

3.7. Gaz o'ldash priborlari va/yoki o'ldov kompleksi egasi uni ishlatish davomida O'z DST 8.030:2008 "Yoqilg'i va energiya. Hisobga qo'yiladigan umumiy talablar", O'z DST 8.031:2008 "Yoqilg'i va energiya. O'ldash priborlari bilan jixozlash va ularni ishlatish" davlat standartlari talablariga, shuningdek o'ldash priborlari ishlab chiqaruvchining talablariga rioya qilish.

3.8. Gaz o'ldash priborlari va/yoki o'ldov komplekslarining metrologik va texnik tavsiflari amaldagi me'yorlar va qoidalarga muvofiq bo'lishi kerak.

3.9. Gaz o'ldash priborlari va/yoki o'ldov komplekslari "O'zstandart" agentligining joriy qiyoslov ko'rigidan o'tkazilgan sertifikatini va/yoki metrologik attestatsiyasiga ega bo'lishi kerak. Gaz o'ldash priborlari va/yoki o'ldov komplekslarining qiyoslov ko'rikdan va/yoki metrologik attestatsiyasidan o'tish davrim "O'zstandart" agentligi belgilaydi.

Gaz o'ldash priborlari va/yoki o'ldov komplekslari egasi gaz o'ldash priborlarini qiyoslov ko'rigidan o'tkazish va/yoki o'ldov komplekslarini (va uning tarkibiy qismlarini) "O'zstandart" agentligida metrologik attestatsiyadan o'tkazishning o'z vaqtida bajarilishi uchun mas'uldir.

3.10. Rejalashtirilgan ishlarning bir qismi sifatida (qiyoslov ko'rigi/kalibrlash, torayish moslamasini almashtirish, ta'mirlash) gaz o'ldash priborlarini va/yoki o'ldov kompleksining qismlarini echish va o'rnatish texnik va/yoki ishlab chiqarish ehtiyojlari asosida kelishuv bo'yicha va ikkala tomonning vakillari ishtirokida amalga oshiriladi.

Gaz o'ldash priborlarini va/yoki o'ldov kompleksining qismlarini echish, o'rnatish, uni ishlab chiqaruvchining talablariga va amaldagi me'yorlar va qoidalarga muvofiq egasi (yoki uning servis xizmat ko'rsatuvchi vakili) tomonidan amalga oshiriladi.

3.11. Rejalashtirilgan ishlarning bir qismi sifatida (qiyosloash ko'rigi/kalibrlash, toraytirish moslamasini almashtirish, ta'mirlash) gaz o'ldash priborlarini va/yoki o'ldov kompleksining qismlarini echish va o'rnatish texnik va/yoki ishlab chiqarish ehtiyojlari asosida kelishuv bo'yicha va ikkala tomonning vakillari ishtirokida amalga oshiriladi.

Gaz o'ldash priborlarini va/yoki o'ldov kompleksining qismlarini echish, o'rnatish, uni ishlab chiqaruvchining talablariga va amaldagi me'yorlar va qoidalarga muvofiq egasi (yoki uning servisi xizmat ko'rsatuvchi vakili) tomonidan amalga oshiriladi.

Etkazib beruvchining vakilini gaz o'ldash priborlari va/yoki o'ldov kompleksining egasi chaqiradi.

3.12. Gaz o'ldash priborlari va/yoki o'ldov komplekslarini modernizatsiya qilish, gaz o'ldash priborlarini almashtirish, gazni o'ldashning boshqa usullarini tanlash masalalari Etkazib beruvchi bilan kelishiladi.

3.13. Gazning fizik-kimyoviy parametrlari (standart sharoitdagi zichlik, azot va karbonat anhidrid) gaz o'ldash priborining konfiguratsiyasiga kintiladi.

Gaz o'lchash priborining egasi gazning fizik-kimyoviy parametrlarini o'z vaqtida gaz o'lchash priborini konfiguratsiyasiga kiritishni ta'minlaydi. Etkazib beruvchi, Iste'molchiga gazning fizik-kimyoviy parametrlarini o'z vaqtida etkazib berilishini ta'minlaydi.

3.14. Etkazib beruvchi o'zining tamg'alarini gaz o'lchash priborlariga va/yoki o'lchash kompleksining gaz hajmini o'lchashga ta'sir qiladigan qismlariga Iste'molchi ishtirokida o'rnatadi va tegishli dalolatnoma tuziladi. O'rnatilgan tamg'alar butligiga Iste'molchi javobgardir.

3.15. Etkazib beruvchi Iste'molchining gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov komplekslari va ularning tarkibiy qismlarining to'g'ri ishlashini kuzatish xuquqiga ega. Shu bilan birga, Iste'molchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Etkazib beruvchi vakillarining o'lchash priborlari va/yoki o'lchash komplekslanga to'siqsiz kirishini ta'minlaydi.

3.16. O'z DST 8.586.(1-5)-2005 bo'yicha o'lchov kompleksi va o'lchash priborlari ishida g'ayritabiiy holatlar yuzaga kelgan taqdirda O'z DST 8.064:2017 bo'yicha gazning miqdori hisoblanadi (korrektirovka). O'lchash qurilmasi va /voki o'lchash kompleksi faoliyatiga ruxsatsiz aralashish holatlari bundan mustasno.

3.17. Olingan gaz uchun hisob-kitob, quyidagi hollarda tamg'alanmagan gazdan foydalanish uskunasi 24 soat davomida ishlab turishi hisob-kitobidan amalga oshiriladi:

a) gazni hisobga olmagan holda gaz iste'moli – gazni hisoblash pribori va gazni sarf qilish normasi bo'lmaganda, gazni hisoblash priborini chetlab o'tgan xolda iste'mol qilish (noqonuniy baypas liniyalari ulanganda) oxirgi xatlovdan o'tkazish dalolatnomasi tuzilgan kundan aniqlangan kungacha, lekin da'vo muddatidan ko'p bo'lmagan davrga;

b) hisobga olish priborini ulash tartibi va sxemasi o'zgartirilganda - oxirgi xatlovdan o'tkazish dalolatnomasi tuzilgan kundan, lekin da'vo muddatidan ko'p bo'lmagan davrga;

v) hisobga olish pribori buzilganda (hisobga olish pribori buzilganligini tasdiqlovchi xujjatlar mavjud bo'lganda) – shartnomaning 1.4 va 1.5-bandlarini inobatga olgan xolda bir hisob-kitob davridan ko'p bo'lmagan vaqtga;

g) hisobga olish pribori mavjud bo'lmaganda – qiyoslov ko'rigidan o'tkazish uchun Echlilganda – hisobga olish pribori echilgan kundan "O'zstandart" agentligidan qiyoslovdan o'tkazilib, sertifikat olinib joyiga o'rnatilgan kungacha bo'lgan vaqtga;

d) hisobga olish priborini qiyoslov ko'rigidan o'tkazish va/yoki o'lchov kompleksini metrologik attestatsiyadan o'tkazish muddati tugaganda – qiyoslov ko'rigidan metrologik attestatsiya o'tkazish muddati tugagan kundan qiyoslov ko'rigidan yoki metrologik attestatsiya o'tkazish uchun Echlilgan kungacha bo'lgan vaqtga;

e) hisobga olish pribori yoki o'lchov kompleksining qismlariga o'rnatilgan tamg'alarining butligi buzilganda – oxirgi ko'rik yoki gaz ta'minoti tashkiloti vakili borib ko'rgan vaqtdan boshlab, lekin bir hisob-kitob davridan ko'p bo'lmagan vaqtga;

j) hisobga olish priborini o'z boshimchalik echib qo'yilganda – oxirgi ko'rik yoki gaz ta'minoti tashkiloti vakili borib ko'rgan vaqtdan boshlab aniqlangan kungacha bo'lgan vaqtga;

z) gazni tarqatish tarmoqlarining texnologik rejimini buzadigan gaz quvurlarida yoki GTPlarida asbob-uskunalar o'rnatilganda - oxirgi ko'rik yoki gaz ta'minoti tashkiloti vakili borib ko'rgan vaqtdan boshlab aniqlangan kungacha bo'lgan vaqtda;

i) Gaz hisoblash uskunasining konfiguratsiyalariga noqonuniv tarzda tashqi ta'sir ko'rsatgan holda tabiiy gazni iste'mol qilish holatlari aniqlanganda— tashqi ta'sir ko'rsatilgan kundan boshlab (agar aralashuv kunini va faktini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lsa), biroq da'vo muddatidan ortiq bo'lmagan muddatga;

k) hisobga olish priborining xotirasida saqlanadigan arxiv ma'lumotlarini yo'qotish, gaz o'lchashni avtomatlashtirilgan tizimidan hisobot oyida ma'lumotlar olish imkoni bo'lmaganda yoki Etkazib beruvchining operativ jurnallaridan olingan ma'lumotlar bo'lmagan taqdirda. (Hisob-kitob uchun TGHINAT (ASKUG) tizimi joriy qilingan iste'molchilarda hisobot davri uchun arxiv ma'lumotlari mavjud bo'lmagan hollarda iste'mol qilingan tabiiy gaz hajmlari to'g'risidagi ma'lumotlar TGHINAT tizimida qayd etilgan ma'lumotlardan olinadi);

l) gaz iste'moli hajmlari hisobga olish priborining ruxsat etilgan maksimal o'lchov chegarasidan ortiqcha bo'lganda, plombalanmagan gaz ihozlaridan foydalanilgan gaz uchun hisob-kitoblar oxirgi xatlovdan o'tkazish dalolatnomasi tuzilgan kundan, xatlov dalolatnomasi mavjud bo'lmaganda esa — gaz ta'minoti tashkiloti vakili tomonidan ohirgi marta borib ko'rilgan kundan amalga oshiriladi;

m) gazlashtirish xujjatlarini rasmiylashtirmasdan iste'molchi tomonidan qo'shimcha gaz qurilmasi o'rnatish holati aniqlanganda (qo'shimcha gaz anjomlarini o'rnatib olib foydalanayotganlik fakti bo'yicha asoslantiruvchi hujjatlar mavjud bo'lganida) -bir hisob-kitob davriga;

3.18. Iste'molchining hisobga olish pribori gaz hajmini pastki chegarasi ostida sarflaganda, gaz hajmi hisobga olish pribori va/yoki o'lchov kompleksining me'yoriv-texnik xujjatlarida ko'rsatilgan o'lchovning pastki chegarasida olmadi.

3.19. Etkazib beruvchi tomonidan etkazib beriladigan gaz hajmining ishonchiligi ta'sir ko'rsatuvchi o'lchov komplekslari va hisoblash priborlarining ishlashi buzilgan holatlar aniqlanganda, Etkazib beruvchi "O'zstandart" agentligi bo'linmalarida o'lchov komplekslari va gazni hisoblash priborlarini ekspertizadan o'tkazishni talab qilish huquqiga ega.

Agar o'lchov komplekslari va hisoblash priborlari nosoz bo'lsa, ekspertizadan o'tkazganlik uchun to'lovlar Iste'molchi tomonidan, soz holatda bo'lganda esa—ekspertiza o'tkazilishi talab qilgan Taraf tomonidan amalga oshiriladi.

3.20. Agar hisobga olish pribori ishdan chiqqandayoki hisobga olish priboridan gaz sizib chiqish holatlari aniqlangan taqdirda Iste'molchi 24 soat ichida Etkazib beruvchiga bu haqda xabar berishi shart. Shuningdek korxonadagi gaz ishlatadigan asbob-uskunalarini ishlash grafigini tuzishi va ishlamaydigan gaz asbob-uskunalarini Etkazib beruvchi bilan birgalikda o'chirib tamg'alanishini ta'minlashi shart.

3.21. Hisobga olish priborlarida gaz sizib chiqish xolati aniqlangan taqdirda qayta hisob-kitoblar ohirgi ko'rik yoki gaz ta'minoti tashkiloti vakili borib ko'rgan vaqtdan boshlab aniqlangan kungacha, lekin da'vo muddatidan ko'p bo'lmagan davrda amalga oshiriladi. (O'z DST 8.586 ga ko'ra gazni aniqlash tizimlari gernetik holatda bo'lishi kerak).

#### **IV. ETKAZIB BERILGAN GAZ UCHUN HISOB-KITOBNI AMALGA OSHIRISH**

4.1. Iste'molchi mazkur shartnoma asosida etkazib berilgan gaz uchun to'lovni amalga oshirishi shart.

4.2. Gaz uchun narxlar O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan amaldagi qonunchilikka muvofiq belgilanadi.

4.3. Iste'molchi hisob-kitob qilish davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin Etkazib beruvchining hisob raqamiga ushbu shartnomaning 1.4 va 1.5-bandlarida ko'rsatilgan oylik gaz hajmi qiymatining 100 foiz summasini oldindan to'laydi.



Hisob-kitob davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin hisob-kitobni 50 foiz oldindan haq to'lash asosida amalga oshirish xohishini bildirgan iste'molchilar hisob-kitob amalga oshiriladigan davrni ko'rsatib etkazib berilgan tabiiy gaz uchun 50 foiz oldindan haq to'lash asosida hisob-kitob qilish to'g'risida Etkazib beruvchiga bildirgi tartibida murojaat qilishga haqlidir. Bunday holatlarda iste'molchilar hisob-kitob davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin, gaz ta'minoti tashkilotining hisob raqamiga tabiiy gaz etkazib berishga tuzilgan shartnomada ko'rsatilgan oylik tabiiy gaz hajmi qiymati summasining 50 foizi miqdorida oldindan haq to'lashlari shart. Amalda iste'mol qilingan tabiiy gaz hajmi uchun yakuniy hisob-kitob, hisobot oyining oxirigacha amalga oshiriladi.

4.4. Iste'molchiga gaz oldindan to'lovsiz etkazib berilmaydi

4.5. Oldindan to'lov amalga oshirilmagan taqdirda, Iste'molchiga gaz etkazib berilmaydi (strategik korxonalar va ijtimoiy ahamiyatga ega iste'molchilar bundan mustasno).

4.6. Iste'molchi har oyning 10 sanasiga qadar avvalgi oyda iste'mol qilingan gaz uchun yakuniy hisob-kitobni amalga oshurishi kerak.

4.7. Strategik va ijtimoiy ahamiyatga ega Iste'molchilar hisob-kitob qilish ovi tugagandan keyin 30 kun mobaynida olingan gaz uchun yakuniy hisob-kitobni amalga oshiradilar.

4.8. Tabiiy gazdan foydalanishda Iste'molchining aybi bilan tabiiy gaz etkazib berishga shartnomada ko'rsatilganidan hajmdan kam foydalanilgan taqdirda, avans tarzida to'langan mablag'lar qaytarilmaydi, ko'rsatib o'tilgan mablag'lar esa kelgusida gazdan foydalanishda hisobga olinadi

4.9. Iste'molchi tomonidan tabiiy gaz etkazib berish uchun tuzilgan shartnomada belgilanganidan ko'p hajmda va gaz ta'minoti tashkiloti bilan oldindan kelishilmasdan gaz olingan taqdirda, Iste'molchidan shartnomadagi hajmlardan ortiqcha olingan tabiiy gaz qiymatiga nisbatan 1.4 koeffitsient bilan oshirilgan to'lov undiriladi.

Bunda, belgilangan tartibda hisoblash priborini almashtirish, ta'mirlash, xizmat ko'rsatish, tekshirish va sozligini monitoring qilish uchun ehib olish, shuningdek, Iste'molchiga aloqador bo'lmagan turli hil (elektr ta'minoti nosozligi, chaqmoq, qisqa tutashuv va x.k.)dagi texnik nosozliklar aniqlanganligi sababli, iste'mol qilingan tabiiy gaz hajmini o'rnatilgan gaz asbob uskunalarini to'liq quvvati bo'yicha hisob-kitob qilinishi natijasida shartnomadagi hajmlardan ortiq hajmlarni tashkil qilgan holatlar bundan mustasno.

4.10. Tabiiy gaz uchun Iste'molchining qarzi mavjud bo'lgan taqdirda, uning avans to'lovi hisobiga o'tkazilgan mablag'lari, Iste'molchini xabardor qilgan holda qarzni qoplashga yo'naltiriladi va avans to'lovi sifatida hisobga olinmaydi.

4.11. Shartnomada ko'rsatib o'tilgan muddatlarda etkazib berilgan gaz qiymati o'z vaqtida to'lanmaganda, Iste'molchi muddati o'tgan har bir kun uchun muddati o'tgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, lekin muddati o'tgan to'lov summasining 50 foizidan oshmaydigan miqdorda penya to'laydi.

4.12. Hisob-kitob oyida etkazib berilgan tabiiy gaz hajmi Etkazib beruvchi vakillari tomonidan tabiiy gaz iste'molini hisobga olish priboridan ko'rsatkichlarni yozib olish (TGHNATga ulangan, shuningdek, tabiiy gazni iste'mol qilishni hisobga olish priborlariga ega bo'lmagan va belgilangan me'yorlar bo'yicha hisob-kitob qiladigan iste'molchilar bundan mustasno) asosida, kevinchalik yozib olingan ko'rsatkichlar «Askuyur» tizimiga kiritish, shuningdek, iste'molchilar tomonidan tabiiy gaz iste'molini hisobga olish priborlari ko'rsatkichlarini interaktiv xizmatlar vositalaridan foydalangan holda kiritish orqali aniqlanadi.



4.13. Shartnomaning 4.12-bandiga asosan ko'rsatkich olinganidan so'ng keyingi o'ying 5 kungacha Etkazib beruvchi tomonidan hisob-kitob oyi uchun gaz etkazib berish-qabul qilish dalolatnomasi rasmiylashtiriladi. Rasmiylashtirilgan gaz Etkazib berish-qabul qilish dalolatnomasiga asosan iste'molchiga elektron hisobvaraqa-faktura yuboriladi.

4.14. Etkazib beruvchi va Iste'molchi o'rtasidagi hisob-kitoblarning haqqoniyligini ta'minlash uchun hisobot davrida gazni etkazib berish-qabul qilish dalolatnomasi Iste'molchida quyidagi texnik hujjatlar mavjud bo'lganda rasmiylashtiriladi:

a) gazni hisoblash pribori hotirasidan hisobot davri uchun olingan (ko'chirma) arxiv ma'lumotlari;

b) Iste'molchiga taqdim etiladigan, Iste'molchining bo'linish chegarasigacha bo'lgan joydagi gaz tarmoqlari va GTQlardagi texnologik yo'qotishlarning hajmi to'g'risidagi dalolatnomaning mavjudligi; Bunda Iste'molchi balansida bo'lgan gaz tarmoqlari va GTQdagi texnologik yo'qotishlar Iste'molchi hisobiga olib boriladi.

4.15. Iste'molchi o'ying 7 kundan kechiktirinsdan Etkazib beruvchidan hisob-kitob oyi uchun gaz etkazib berish va qabul qilish dalolatnomasini qabul qilib oladi. imzolaydi va bir nusxasini Etkazib beruvchiga jo'natadi. Rasmiylashtirilgan gaz etkazib berish-qabul qilish dalolatnomasiga asosan elektron hisobvaraqa-fakturani qabul qiladi.

4.16. Tabiiy gazni etkazib berish-qabul qilish dalolatnomasini imzolamaslik yoki uni e'tirozlar bilan imzolash Iste'molchini ko'rsatib o'tilgan tabiiy gaz hajmlari uchun to'lovlardan ozod qilmaydi. Uzatilgan yoki qabul qilingan gaz miqdorini aniqlashdan norozi bo'lgan tomon dalolatnomada norozilik sabablarini majburiy aks ettirish yo'li bilan hisob-kitob qilish oyi tugagandan keyin 10-kungacha boshqa tomonga bu to'g'rida ma'lum qilib, so'ng dalolatnomaning bir nusxasini Etkazib beruvchi vakiliga taqdim qiladi. Ushbu masalani o'zaro hal etish imkoniyati bo'lmaganda, kelishmovchilik sabablari belgilangan tartibda ko'rib chiqilishi kerak.

4.17. Iste'molchidan debitor qarzlarni undirish. Etkazib beruvchi tomonidan qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

4.18. Gaz uzib qo'yilganidan so'ng o'zboshinchalik bilan qayta ulanganda, iste'mol qilingan gaz hajmi va uning qiymati gaz uzib qo'yilgan kundan boshlab, ulangan gazdan foydalanish uskunasi bir sutkada 24 soat ichida to'liq quvvat bilan ishlab turishi hisobidan aniqlanadi.

4.19. Gaz uchun amaldagi tariflar (narxlar) o'zgargan taqdirda, Etkazib beruvchi bu haqidagi axborotni o'n besh kun oldin ommaviy axborot vositalari orqali xabardor qiladi. Gaz uchun tariflar o'zgarganida, mazkur shartnoma o'z kuchida qoladi, iste'mol qilingan gaz uchun to'lov esa yangi tarif asosida, u qonunda belgilangan tartibda kuchga kirganidan so'ng amalga oshiriladi. Bunda iste'molchi tabiiy gazning avans tariqasida to'langan hajmi uchun to'lov kundan boshlab ko'pi bilan keyingi 1 oy qo'shimcha to'lov to'lashdan ozod qilinadi.

## **V. HUQUQBUZARLIKLAR VA GAZDAN NOQONUNIY FOYDALANISH UCHUN JAVOBGARLIK**

5.1. Gazdan foydalanishda Iste'molchi tomonidan mazkur shartnomaning 3.17. va 4.18 - bandida ko'rsatib o'tilgan huquqbuzarliklarga yo'l qo'yilishi, Etkazib beruvchi va

Iste'molchi vakillari tomonidan imzoladanigan va ikki nusxada tuziladigan dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

5.2. Ushbu shartnomaning 5.1-bandiga asosan rasmiylashtirilgan dalolatnomaga muvofiq Iste'molchidan foydalangan gaz hajmi qiymati (amaldagi tariflar bo'yicha) undirib olinadi.

5.3. Bunda mazkur shartnomaning 5.2-bandida ko'rsatilgan holatlarda gaz hajmi qiymatining undirilishi Iste'molchini qonunchilikda belgilangan javobgarlikdan ozod qilmaydi.

## **VI. TARMOQDAN UZIB QO'YISH VA QAYTA**

### **ULANISH TARTIBI**

6.1. Iste'molchida quyidagi holatlarning mavjudligi handa ushbu holatlarning bartaraf etilgunga qadar gaz tarmoqlaridan uzib qo'yiladi:

- shartnomaviy majburiyatlar bajarilmaganda;
- Etkazib beruvchi vakillarini gazdan foydalanish uskunalari va hisobga olish qurilmalarini nazoratdan o'tkazishga yo'l qo'yilmaganda;
- foydalanilgan gaz uchun hisob-kitob o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi natijasida qarzdorlik mavjud bo'lganda;
- shartnomada belgilangan buyurtmalarga etarli miqdorda oldindan to'lovlar amalga oshirilmaganda;
- Etkazib beruvchining va "O'zneftgazinspeksiya"ning ko'rsatmalari bajarilmaganda;
- hisoblash priborlariga qasddan zarar etkazilganda, pribor ko'rsatgichlarini o'zgartirish maqsadida ularning ishlashiga to'sqinlik qiluvchi xatti-harakatlar amalga oshirilgan holatlarda;
- gazni hisobga olish priborlariga tashqi ta'sir ko'rsatishga harakat qilish;
- Gazdan foydalanish qoidalariga zid ravishda gaz tarmoqlariga noqonuniy ulanish yoki boshqa qoidabuzarliklar yohud gazni talon-taroj qilish holatlari aniqlanganda;

Bunda Etkazib beruvchi gaz ta'minotining o'chirilishi natijasida Etkazilgan moddiy zarar yoki boy berilgan foyda uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

6.2. Tarmoqqa qayta ulanishda analdagi qonunchilikka muvofiq Iste'molchidan bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari miqdorida haq undiriladi. Shartnomaning 13.1.-bandida ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

6.3. Gaz iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashirilgan tizim (TGINAT) lariga ulangan iste'molchilarni masofadan qayta ulash uchun haq undirilmaydi.

## **VII. TARAFLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI.**

7.1. Etkazib beruvchi quyidagilarga majbur:

- o'ziga qarashli bo'lgan gaz tarmoqlarini soz holatda saqlash va ularni o'z hisobidan ta'mirlash-tiklash;
- o'ziga qarashli gaz tarmoqlarining texnik holatini va ularda ruxsatsiz ulanishlarni aniqlash uchun davriy ko'zdan kechirish; - tabiiy gaz etkazib berish qisqargan yoki to'xtagan taqdirda bu to'g'rida Iste'molchilarni xabardor qilish;

- gaz hisoblash uskunalaridan olingan arxiv ma'lumotlarni, elektron ma'lumotlarning barcha parametrlarini kamida uch yil mobaynida o'zida saqlanishni ta'minlash

- shartnomaning 3.17. va 4.18.-bandlariga ko'rsatilgan holatlar sodir etilganligi va ushbu holatlarni bartaraf etilgunga qadar tabiiy gaz ta'minotini qo'shimcha ogohlantirishlarsiz tarmoqdan o'chirish;

- tabiiy gazning ruxsatsiz iste'mol qilinganligi, gaz tarmoqlari moddiy boyliklarining talon-taroj qilinganligi to'g'risida huquqni muhofaza qilish organlarini xabardor qilish;

- Iste'molchuga gaz Etkazib berish shartnomasida kelishilgan shartlar asosida gazni Etkazib berish:

- qonunda nazarda tutilgan tartibda monopolivaga qarshi davlat organining taqdimnomasiga asosan shartnomaga o'zgartirishlar kiritish;

- Etkazib beruvchi va vakolatli davlat organlarining majburiy ko'rsatmalarini bajarish;

- texnik xizmat ko'rsatish shartnomalariga muvofiq iste'molchilarning ichki gaz tarmoqlari, gazdan foydalanuvchi uskunalarini texnik taftishdan o'tkazish va ularga profilaktika xizmat ko'rsatish:

- tabiiy gaz sizib chiqishida — darhol;

- ovqat tayyorlash uchun mo'ljallangan gazdan foydalanish uskunalarning nosozligida — bir kun davomida;

- isitish mavsumida isitish uchun mo'ljallangan gazdan foydalanish uskunalarning nosozligida — bir kun davomida;

- issiq suv va isitish uchun mo'ljallangan gazdan foydalanish uskunalarning nosozligida (isitish mavsumidan tashqari vaqtda) — ikki kun davomida;

- Gazdan foydalanish uskunalarini 5 sutka muddat ichida almashtirish;

Etkazib beruvchi qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

7.2. Etkazib beruvchi quyidagi huquqlarga ega:

- texnik zaruratga ko'ra, Iste'molchini belgilangan tartibda xabardor qilgan holda, tabiiy gazni Etkazib berishni qisqartirish yoki to'xtatish;

- gaz ta'minoti tarmoqlariga ruxsatsiz ulanish holatlari aniqlanganda ularni belgilangan tartibda gaz tarmog'idan uzib qo'yish;

- Iste'molchilardan tabiiy gazdan foydalanish qoidalari va gazni Etkazib berish shartnomasi talablariga rioya etishni talab qilish;

- tabiiy gazni Etkazib berish shartnomasini ijro qilishdan qonun hujjatlariga muvofiq bir tomonlama voz kechish;

- gaz tarmoqlarida avarivanning oldini olish yoki bartaraf etish yuzasidan kechiktirib bo'lmaydigan choralarni ko'rish zarurati yuzaga kelganda, Iste'molchi bilan kelishmasdan va umi ogohlantirmasdan hamda zudlik bilan xabardor qilgan holda, tabiiy gazni etkazib berishni to'xtatish yoki cheklash;

-ushbu shartnomada nazarda tutilgan xolatlarda, aniqlangan qoidabuzarliklar



bartaraf etilguniga qadar avvaldan ogohlantirmagan holda gaz etkazib berishni to'xtatish

- tabiiy gaz etkazib berish shartnomasini bir tomonlama bekor qilish.

7.3. Iste'molchi quyidagilarga majbur:

- hisobot oyida tabiiy gaz etkazib berish va qabul qilish dalolatnomasini va hisobvaraqaasini rasmiylashtirish uchun har oyning 5-sanasigacha Etkazib beruvchiga elektron gaz hisobdonini arxiv ma'lumotlari (raspechatka) yoki gazni hisobga olish priborlarining ko'rsatkichlarini taqdim etish.

-Ichki gaz tarmoqlari, gazdan foydalanuvchi uskunalarini texnik taftishdan o'tkazish va ularga profilaktika xizmati ko'rsatish uchun Etkazib beruvchi bilan tasdiqlangan tariflar bo'yicha bajarilgan ishlar to'g'risida dalolatnoma tuzadi

- Iste'molchi bajarilgan ishlar to'g'risida dalolatnomada ko'rsatilgan rekvizitga asosan Etkazib beruvchiga 100 foiz to'lov amalga oshiradi.

- gazdan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish:

- gaz xo'jaligi gaz quvurlari va uskunalarini texnik jihatdan soz holatda saqlash:

- gaz tarmoqlarida yoki gazdan foydalanish uskunasi va vujudga kelgan tabiiy gaz sizib chiqishi holati haqida gaz ta'minoti tashkiloti dispetcherlik xizmatlarini zudlik bilan xabardor qilish:

- o'zining gaz tarmoqlari daxlsizligini ta'minlash va ehtimoli bo'lgan ruxsatsiz ulanishlarni aniqlash maqsadida ularni va ulardagi uskunalarni muntazam ravishda ko'zdan kechirib chiqish:

- gaz ta'minoti tashkilotlari gaz tarmoqlariga sertifikatlanmagan, gazlashtirish lovihasiga (LTI) muvotiq bo'lmagan gazdan foydalanish uskunasining ulanishiga yo'l qo'ymaslik,

- gaz Etkazib beruvchi vakillari va "O'zneftgaznospetsiya" xodimlarining (tegishli guvoohnoma ko'rsatilgan taqdirda) tabiiy gazni iste'mol qilishni hisobga olish priborlarini va/yoki gazdan foydalanish uskunasini kunning istalgan vaqtida erkin ko'zdan kechirishini ta'minlash:

- gazdan foydalanish uskunasidagi nosozliklarni (bunday turdagi ishlarni bajarish huquqiga ega bo'lgan ixtisoslashtirilgan brigadalar yoki xodim yordamida) bartaraf etish:

- tabiiy gaz iste'molini hisobga olish priborlari ko'rsatkichlarini o'zgartirish maqsadida ularning ishlashiga to'sqinlik qiluvchi harakatlarni amalga oshirmaslik, ularning qasddan buzilishiga yo'l qo'ymaslik va o'rnatilgan tang'alarining butunligini ta'minlash;

- tabiiy gaz iste'molini hisobga olish priborlari ishidagi nosozlik aniqlangan taqdirda gaz ta'minoti tashkilotini o'zi uchun qulay shaklda darhol xabardor qilish.

-Gaz tarmog'i bo'linishi chegarasida tabiiy gaz sarfi bo'yicha ma'lumotlarni masofadan olish imkoniyatini beruvchi gaz iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan (TGHNAT-ASKUG) tizimiga ulangan hisoblash priborlari Iste'molchi tomonidan o'rnatish.

7.4. Iste'molchi Etkazib beruvchidan quyidagilarni talab qilish huquqiga ega.

- Etkazib berilgan tabiiy gazning aniqlangan hajniga va boshqa parametrlarga norozi bo'lgan taqdirda, Etkazib beruvchining tabiiy gazni iste'molini hisobga olish priborlari ishlashining ishonchligini tekshirish uchun komissiya tashkil etish:

- tabiiy gazning standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlarda ko'zda tutilgan sifatda va Etkazib berish rejimiga rioya qilgan holda uzatilishi;

- tabiiy gazni etkazib berish shartnomasi bekor qilinganda, foydalanilmagan gaz

hujmi uchun to'langan summani qaytarish:

- tabiiy gazni etkazib berish shartnomasini qonun hujjatlariga muvofiq bir tomonlama bekor qilish;

- tabiiy gazni etkazib berish to'xtatilganda, zararni qoplashni talab qilish (shartnomaning 2.5. va 6.1. bandlari bundan mustasno);

- gaz etkazib berishni vaqtincha to'xtatishni.

Iste'molchi konunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa huquqlarga ega bo'lishi mumkin.

### **VIII. TARAFLARNING MODDIY JAVOBGARLIGI**

8.1. Etkazib beruvchi iste'molchiga gaz etkazib berish shartnomasiga asosan gaz etkazib berilgan yoki to'liq etkazib berilmaganligi oqibatida etkazilgan moddiy zarar va boy berilgan foydani belgilangan tartibda qoplaydi.

Etkazib beruvchi gazni etkazib bermaganlik voki to'liq etkazib bermaganlik uchun quyidagi hollarda javobgar hisoblanmaydi:

a) Iste'molchi tomondan gaz ta'minoti tarmoqlariga qo'shimcha gazdan foydalanish uskunasini ruxsatsiz ulash holati aniqlanganda;

b) foydalanilgan gaz uchun to'lov amalga oshirilmaganda;

v) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda;

g) iste'molchi tomonidan shartnoma talablariga amal qilinmagunida;

d) mazkur shartnomaning 2.5. va 6.1. bandlarida ko'rsatilgan hollarda.

8.2. Etkazib beruvchi tomonidan shartnoma majburiyatlarining bajarmasligi natijasida Iste'molchiga moddiy zarar etkazilganda, Etkazib beruvchining mansabdor shaxsiga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining o'n barobaridan o'n besh baravari miqdorida jarima qo'llanadi.

8.3. Shartnomada ko'rsatilgan hajmdan kam hajmda gaz etkazib berilgan taqdirda, Etkazib beruvchiga nisbatan O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni asosida jarima sanksiyalari qo'llaniladi. quyidagi holatlar bundan mustasno:

a) fors-major holatlar;

b) magistrat gaz quvurlarida va gaz tarmoqlarida avariya holatlari yuz berganda;

v) qish davrida vaqtincha gaz etkazib berish cheklanganida (O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 vil 24 dekabrda 277-son qarorlari. shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari qarorlari bilan tasdiqlangan gaz etkazib berish tarmog'idan uzib

qo'yilmaydigan ob'ektlar ro'yxatiga kiritilgan korxonalaridan tashqari);

g) shartnoma asosida Iste'molchi tomonidan o'z zimmasiga olingan majburiyatlar bajarilmaganda.

8.4. Etkazib berilgan tabiiy gazning sifati shartnoma yoki normativ hujjatlar talablariga mos kelmaganda, Iste'molchi gaz qabul qilish yoki uning uchun haq to'lashni rad etganda Etkazib beruvchidan etkazib berilgan sifati zarur darajada bo'lmagan gaz hajmi qiymatining 20 foizi miqdorida jarima to'lashni-talab qilish huquqiga ega. Agar, gaz qiymati to'langan bo'lsa, Iste'molchi Etkazib beruvchidan belgilangan tartibda to'langan summani qaytarishni talab qilish huquqiga ega.

8.5. Etkazib beruvchi tomonidan shartnomada ko'rsatilgan hajmlardan kam gaz etkazib berilganda, Etkazib beruvchi Iste'molchiga muddati o'tgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan summasining 0.5 foizi miqdorida, biroq Etkazib berilmagan gaz qiymatining 50 foizidan oshmaydigan miqdorda penya to'laydi.

8.6. Shartnomada ko'rsatib o'tilgan muddatlarda etkazib berilgan gaz haqi o'z vaqtida to'lanmagan taqdirda, Iste'molchi muddati o'tgan har bir kun uchun muddati o'tgan to'lov summasining 0.4 foizi miqdorida, biroq muddati o'tgan to'lov summasining 50 foizidan oshmaydigan miqdorda penya to'laydi.

## **IX. KORRUPSIYAGA QARSHI TALABLAR**

9.1. Ushbu shartnomaning har bir taraflari bir-biriga nisbatan amaldagi korrupsiyaga qarshi kurash talablari, shu jumladan, bu bilan cheklanib qolmasdan, barcha amaldagi qonun va qoidalariga oid shartlarni va talablarni tadbiiq etishini ifodalaydi va kafolatlaydi.

9.2. "Iste'molchi" "Etkazib beruvchi"ga mazkur shartnoma doirasida quyidagilarni kafolatlaydi va quyidagi majburiyatlarni ham o'z zimmasiga oladi: Shartnomaning amal qilish muddati davomida u (shuningdek, uning xodimlari, direktorlari, agentlari va boshqa vakillari), iste'molchi manfaatlarini uchun agent yoki vakil sifatida harakat qilib, "Etkazib beruvchi"ning korrupsiyaga qarshi amaldagi talablariga va O'zbekiston Respublikasining barcha qonun va qoidalariga qat'iy rioya qiladi.



## **X. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI**

10.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar yuzaga kelgan taqdirda tomonlar qoidaga ko'ra, ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

10.2. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalarni hal etish uchun taraflar belgilangan tartibda javobgar joylashgan joydagi tegishli sudga murojaat qilishga haqlidir.

10.3. Shartnoma shartlarini bir tomonlama rad etish va bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonunda belgilangan holatlar bundan mustasno.

## **XI. FORS-MAJOR HOLATLAR**

11.1. Tomonlar:

a) tabiiy ofatlar:

b) magistral gaz quvurlarida va gaz tarmoqlarida. gazni qayta ishlash korxonalari va gaz qazib chiqarish joylarida kutilmagan avariya vaziyatlari yuzaga kelganda, shuningdek Engib bo'lmas kuchlar tufayli sodir bo'lgan tabiiy ofatlar, xususan, sel, yong'ir, suv toshqini, yong'in chiqishi, er qumurlashi, virus tarqalishi va pandemiya davrida hamda Hukumat qaroriga asosan taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlari bajarish imkoni bo'lmay qolganda javobgarlikka jalb etilmasdan, gaz etkazib berishni to'xtatish, qisqartirish yoki munosabtlarni to'xtatish huquqiga ega bo'ladilar.

11.2. Fors-major holatlar yuzaga kelgan taqdirda, taraflar har qanday aloqa vositasi yordamida bir-birini xabardor qilishi kerak.

11.3. Agar, ko'rsatilgan holatlar 90 kundan ortiq kun mobaynida saqlanib tursa, tomonlar muzokaralar yo'li bilan shartnomani kelgusida bajarish to'g'risidagi qaror qabul qiladilar.

## **XII. SHARTNOMANING AMAL QILISHI**

12.1. Ushbu shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar yozna ravishda hamda taraflar tomonidan imzolanishi kerak.

12.2. Budget tashkilotlari uchun shartnoma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevralidagi PQ-594-son qaroriga asosan G'aznachilik bo'limi tomonidan majburiy tartibda ro'vhatdan o'tkazilgan kundan boshlab kuchga kiradi.

12.3. Shartnoma 2022 yil 31 dekabrgacha bo'lgan muddatga tuzilgan. Shartnomaning muddati tugaganidan keyin, agar tomonlardan biri shartnomani bekor qilish to'g'risida talab bilan murojaat qilmagan bo'lsa, shartnoma keyingi yilga uzaytirilgan hisoblanadi.

Budjet tashkilotlari uchun shartnoma bir yilga tuziladi. shartnomaning muddati tugaganidan keyin, agar tomonlardan biri shartnomani bekor qilish to'g'risida talab bilan murojaat qilmagan bo'lsa, shartnoma keyingi yilga uzavtirilgan hisoblanadi. Budjetdan mablag' oluvchilar har yili 2022 yil 31 dekabr sanasiga" amal qilishlari lozim.

12.4. Tomonlarning ushbu shartnoma bo'yicha da'volari da'vo qabul qilingan kundan boshlab 30 kun mobaynida ko'rib chiqiladi.

### **XIII. YaKUNLOVCHI QOIDALAR**

13.1. Ushbu shartnoma tomonlarning har biri uchun uch nusxada tuzilgan, uchta nusxasi ham bir hil yuridik kuchga ega.

**XIV. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA MANZILI:**

«ETKAZIB BERUVCHI  
«Xududgazta'minot» AJ  
«Xududgaz Toshkent» filiali

«ISTE'MOLCHI»

100115, Toshkent Viloyati. Nurafsho  
shaxri, Sport kuchasi 37-A uy

Manzil: Tel. faks: (78) 150-31-30. (78) 150-30-95

Bank nomi: «Uzsanoatqurilishbank» Rakat f-li

MFO: 00435

INN: 306605769


OKED: 35220

X/R: 2263 4000 1051 1396 0431

Rahbar: M.R. Adiev

Imzosi: \_\_\_\_\_

Muhr o'rni



OKPO kodi  
MULOQOT TELEFONI

Muloqot telefoni

G'az./h

Bank nomi:

MFO

INN

sh h

h r

meu(97)3454941



Yuridik maslahatchi yulxatasi: M.R. Adiev

tabiiy gazni etkazib berish

va qabul qilishga oid shartnoma loyixasini o'rganib chiqib, shartnomaning majburiyatlari O'zbekiston Respublikasi «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faohyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida»gi qonuni. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining tegishli moddalari va boshqa normativ xujjatlar talablariga rioya etilgan xolda tuzilganligini e'tirof etib, shartnoma loyixasini o'matilgan tartibda imzolanishiga tavsiya qilaman.

(F.I.Sh.)

(sana)






## Ushbu shartnomani haqqoniyligini tasdiqlovchi mas'ul filial xodimlari


Energiya manbalari balansini tuzish


bo'limi boshlig'i \_\_\_\_\_  
(F.I.O.)  \_\_\_\_\_  
(imzo) (sana)

Yuridik shaxslarga tabiiy gazni etkazib berishni nazorat qilish bo'limi boshlig'i \_\_\_\_\_

(F.I.O.)  \_\_\_\_\_  
(imzo) (sana)

O'z.Res.Vaz.Max. 22-son va O'z.Res.Pr. 2020 yil 24 sentyabr PQ-4840 qarori yrosi talabriga rioya qilish sharti bilan


Metrologiya xizmati boshlig'i \_\_\_\_\_  
(F.I.O.)  \_\_\_\_\_  
(imzo) (sana)


Bo'lim boshlig'i: **D.JORABOEV** \_\_\_\_\_  
(F.I.O.)  \_\_\_\_\_  
(imzo va muhr) (sana)

Hosh muxandisi **U.DJAMALOV** \_\_\_\_\_  
(F.I.O.)  \_\_\_\_\_  
(imzo) (sana)

Ulgurji iste molchilar bilan ishlash xizmati muxandisi **U.MURATOV** \_\_\_\_\_  
(F.I.O.)  \_\_\_\_\_  
(imzo) (sana)

Servis xizmati ustasi **R.PIRIMOV** \_\_\_\_\_  
(F.I.O.)  \_\_\_\_\_  
(imzo) (sana)

Metrologiya xizmati muxandisi **A.YULDASHEV** \_\_\_\_\_  
(F.I.O.)  \_\_\_\_\_  
(imzo) (sana)

Foydalanish xizmati ustasi **A.ABDUVALIEV** \_\_\_\_\_  
(F.I.O.)  \_\_\_\_\_  
(imzo) (sana)

Hisobchi **D.BADALOVA** \_\_\_\_\_  
(F.I.O.)  \_\_\_\_\_  
(imzo) (sana)

Umum gaz bo'limi TX va MM muxandisi **A.KABIROV** \_\_\_\_\_  
(F.I.O.)  \_\_\_\_\_  
(imzo) (sana)